

«Uzbekistan Airways» Aj yangi model asosida ilk parvozni amalga oshirdi

2021 30 Avgust

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligini keng miqyosda nishonlash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi 5100-sonli Qarori ijrosini ta'minlash doirasida Uzbekistan Airways aviatashuvlarning gibrid modeliga o'tdi va 30-avgust kuni Toshkent-Moskva yo'nalishida birinchi aviaqatnovni amalga oshirdi.

Ilk Uzbekistan Airways Express aviaqatnoviga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda 22 nafar migrant-yo'lovchilar taklif etilib, ularga bir martalik Toshkent-Moskva yo'nalishiga bepul aviachiptalar hadya etildi. Bu ham o'z navbatida aviabilet xarid qilib olishga imkoniyati bo'lmagan yo'lovchilarga ko'rsatilayotgan e'tibordan darak.

Uzbekistan Airways Express mahalliy va mintaqalararo aviatashuvlarga asosiy e'tiborini qaratadi hamda "to'liq ekonom" tarzida komponovka qilingan 4 ta Airbus A320 havo kemasida o'z aviaqatnovlarini amalga oshirishni boshlaydi. Kelgusidagi aviaqatnovlar xaritasi Moskva, Novosibirsk, Qozon, Rostov-na-Donu, Krasnodar, Sochi, Mineralniye Vodi, Yekaterinburg, Aqtau, va Aqtobe kabi muhim shaharlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Uzbekistan Airways Express uchun modifikatsiya qilingan avialaynerlarda amalga oshiriluvchi parvozlarning aviachipta narxlari 20 foizga pasaytirilgan va joriy yilning sentabr oyidan boshlab quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Toshkent – Moskva - 1 490 645 so'mdan, Toshkent – Moskva – Toshkent - 2 833 750 so'mdan;
- Urganch - Moskva - 1 490 645 so'mdan, Urganch - Moskva - Urganch - 2 833 750 so'mdan;
- Namangan - Moskva - 1 490 645 so'mdan, Namangan – Moskva – Namangan - 2 833 750 so'mdan;

- Buxoro - Moskva - 1 490 645 soʻmdan, Buxoro - Moskva – Buxoro - 2 833 750 soʻmdan;
- Fargʻona – Moskva - 1 490 645 soʻmdan, Fargʻona – Moskva – Fargʻona - 2 833 750 soʻmdan;
- Qarshi – Moskva - 1 490 645 soʻmdan, Qarshi – Moskva – Qarshi – 2 833 750 soʻmdan;
- Toshkent – Krasnodar - 1 717 888 soʻmdan, Toshkent – Krasnodar – Toshkent – 3 158 892 soʻmdan;
- Toshkent - Mineralniye Vodi - 1 551 782 soʻmdan, Toshkent - Mineralniye Vodi – Toshkent – 3 003 550 soʻmdan;
- Toshkent – Rostov-na-Donu - 1 520 238 soʻmdan, Toshkent – Rostov-na-Donu – Toshkent – 2 974 635 soʻmdan.

Chiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.

Eslatib oʻtamiz, yoʻlovchilar +998981400200 (kunu-tun) telefon raqamiga qoʻngʻiroq qilib, Uzbekistan Express aviaqatnovlari boʻyicha oʻz savollariga javob olishlari mumkin.

Telegram: t.me/uzbekistanairways